


QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-iyun oylari uchun dastlabki ma'lumot)

2020-yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **257,5** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan **148,2** mln. AQSh dollariga yoki **36,5 %** ga kamaydi.


TASHQI SAVDO
AYLANMASI
VA BALANSI
(yanvar-iyun,
mln. AQSh
dollari)



Ma'lumot uchun: Qashqadaryo viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlar XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi **107,2** mln. AQSh dollariga (**42,9** % ga kamaydi) va import hajmi **150,3** mln. AQSh dollariga (**31,0** % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida **-43,1** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**TASHQI SAVDO
AYLANMASI**
(yanvar-iyun,
ming AQSh
dollari)



So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Qashqadaryo viloyati, jahonning **55** dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasi (**22,9** %), Rossiya Federatsiyasi (**11,3** %), Turkiya (**9,6** %), Qozog'iston (**8,9** %), Germaniya (**7,2** %), Eron (**5,2** %), Afg'oniston (**4,9** %) va Hindiston (**4,0** %) qayd etilgan.

**QASHQADARYO
VILOYATI BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG
YUQORI
ULUSHGA EGA
BO`LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil yanvar-
iyun, ming AQSh
dollari, ulushi,
% da)**

Top-20 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	58 946,5	8 440,0	50 506,5	22,9
Rossiya Federatsiyasi	29 030,4	16 376,6	12 653,8	11,3
Turkiya	24 788,4	13 428,4	11 360,0	9,6
Qozog`iston	22 869,0	18 289,0	4 580,0	8,9
Germaniya	18 609,9	22,6	18 587,3	7,2
Eron	13 392,6	12 838,1	554,5	5,2
Afg`oniston	12 703,9	12 638,3	65,6	4,9
Hindiston	10 266,4	328,0	9 938,4	4,0
Yaponiya	8 515,7	340,7	8 175,0	3,3
Qirg`iz Respublikasi	6 478,6	5 313,5	1 165,1	2,5
Indoneziya	5 997,3	5997,3	-	2,3
AQSH	5 726,3	7,7	5 718,6	2,2
Belarussiya	5 329,5	150,5	5 179,0	2,1
Tojikiston	4 134,9	4 070,8	64,1	1,6
Pokiston	3 547,6	3 525,3	22,3	1,4
Fransiya	3 169,4	0,1	3 169,3	1,2
Avstraliya	2 978,9	-	2 978,9	1,2
Italiya	2 253,0	-	2 253,0	0,9
Koreya Respublikasi	2 015,4	22,4	1 993,0	0,8
Litva	1 922,9	96,6	1 826,3	0,7

**QASHQADARYO
VILOYATI BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG
YUQORI
ULUSHGA EGA
BO`LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil yanvar-
iyun, ming AQSh
dollari, ulushi
% da)**

Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Qozog`iston va Qirg`iz Respublikalari bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qirg`iz Respublikasi, Tojikiston va Afg`oniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to`qqizta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (**3 722,8** ming AQSh dollari), Turkiya (**2 068,4** ming AQSh dollari), Eron (**12 283,6** ming AQSh dollari), Afg`oniston (**12 572,8** ming AQSh dollari), Qozog`iston (**13 709,1** ming AQSh dollari), Indoneziya (**5 997,3** ming AQSh dollari), Qirg`iz Respublikasi (**4 148,5** ming AQSH dollari), Tojikiston (**4 006,8** ming AQSH dollari) va Pokiston (**3503,0** ming AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan **11** ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**QASHQADARYO
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-iyun,
ming AQSh
dollari)**

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	78 917,5	134 825,1	58 946,5
Eksport	49 615,1	36 210,3	8 440,0
Import	29 302,4	98 614,8	50 506,5
Saldo	20 312,7	-62 404,5	-42 066,5
Rossiya Federatsiyasi	31 868,7	33 132,9	29 030,4
Eksport	16 356,0	18 514,7	16 376,6
Import	15 512,7	14 618,2	12 653,8
Saldo	843,3	3 896,4	3 722,8
Turkiya	30 324,3	43 292,9	24 788,4
Eksport	17 244,6	36 065,6	13 428,4
Import	13 079,7	7 227,3	11 360,0
Saldo	4 164,9	28 838,4	2 068,4
Qozog`iston	22 492,0	36 190,3	22 869,0
Eksport	15 338,2	18 691,4	18 289,0
Import	7 153,8	17 498,9	4 580,0
Saldo	8 184,4	1 192,5	13 709,1
Germaniya	6 887,5	6 589,7	18 609,9
Eksport	0,1	5,7	22,6
Import	6 887,4	6 584,0	18 587,3
Saldo	-6 887,3	-6 578,3	-18 564,7
Eron	11 650,6	36 682,7	13 392,6
Eksport	11 224,3	35 391,2	12 838,1
Import	426,3	1 291,5	554,5
Saldo	10 798,0	34 099,7	12 283,6
Afg'oniston	6 205,5	10 652,1	12 703,9
Eksport	6 205,5	10 628,5	12 638,3
Import	-	23,6	65,6
Saldo	6 205,5	10 604,9	12 572,8

**QASHQADARYO
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-iyun,
ming AQSh
dollari)**


Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Hindiston	3 795,1	2 135,0	10 266,4
Eksport	19,3	38,5	328,0
Import	3 775,8	2 096,5	9 938,4
Saldo	-3 756,4	-2 058,0	-9 610,4
Yaponiya	7 562,2	5 413,5	8 515,7
Eksport	-	2,3	340,7
Import	7 562,2	5411,2	8 175,0
Saldo	-7 562,2	-5 408,9	-7 834,3
Qirg'iz Respublikasi	1 687,7	3 434,3	6 478,6
Eksport	977,6	3 396,1	5 313,5
Import	710,1	38,2	1 165,1
Saldo	267,6	3 357,9	4 148,5
Indoneziya	13 399,0	7 110,0	5 997,3
Eksport	13 399,0	7 110,0	5 997,3
Import	-	-	-
Saldo	13 399,0	7 110,0	5 997,3
AQSH	4 708,4	3 554,7	5 726,3
Eksport	22,7	10,2	7,7
Import	4 685,7	3 544,5	5 718,6
Saldo	-4 663,0	-3 534,2	-5 710,8
Belarus Respublikasi	749,1	2 685,3	5 329,5
Eksport	212,3	280,5	150,5
Import	536,8	2 404,8	5179
Saldo	-324,5	-2 124,3	-5 028,5
Tojikiston	8 478,5	12 152,0	4 134,9
Eksport	8 063,6	11 606,5	4 070,8
Import	414,9	545,5	64,1
Saldo	7 648,7	1 1061,0	4 006,8

**QASHQADARYO
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-iyun,
ming AQSh
dollari)**

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Pokiston	1 859,4	1 596,9	3 547,6
Eksport	1 841,9	1 156,3	3 525,3
Import	17,5	440,6	22,3
Saldo	1 824,4	715,7	3 503,0
Avstraliya	-	-	2 978,9
Eksport	-	-	-
Import	-	-	2 978,9
Saldo	-	-	-2978,9
Italiya	5 848,2	2 102,6	2 253,0
Eksport	-	-	-
Import	5 848,2	2 102,6	2 253,0
Saldo	-5 848,2	-2 102,6	-2 253,0
Janubiy Koreya	49 520,4	7 543,0	2 015,4
Eksport	1,4	54,6	22,4
Import	49 519,0	7 488,4	1 993,0
Saldo	-49 517,6	-7 433,8	-1 970,6
Litva	457,8	11 444,4	1 922,9
Eksport	211,7	263,9	96,6
Import	246,1	11 180,5	1 826,3
Saldo	-34,4	-10 916,6	-1 729,7
Shveysariya	82,3	1 157,3	1 456,8
Eksport	-	-	-
Import	82,3	1 157,3	1 456,8
Saldo	-82,3	-1 157,3	-1 456,8

Viloyatimizda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-iyun oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **27,9** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi o`tgan yilga nisbatan ulushi **2,5** % ga kamaygan.

QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)





Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020-yil yanvar-iyun oylarida kamaydi (2019-yil shu davriga nisbatan **30,3** % ga kamaydi) va jami TSA dagi ulushi **72,1** % ni tashkil etdi.

QASHQADARYO VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-iyun)

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning eksportyorlar soni **46** tani tashkil etib, ular tomonidan **107,2** mln. AQSh dollari (2019-yilning mos davriga nisbatan **42,8** % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishini ta`minladi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **97,9** % ni tashkil etib, ular asosan to`qimachilik buyumlari (**10,8** %), oziq-ovqat mahsulotlari (**24,0** %, aksariyat meva-sabzavot – **85,3** %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (**18,4** %), energiya manbalari (**10,2** %), qora va rangli metall (**0,2** %) hamda boshqalar (**34,3** %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2020-yil
yanvar-iyun)



**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
EKSPORT TARKIBI
(2020-yil
yanvar-iyun)**

Tarkibi	Ming AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	107 202,9	46 345,9	60 857,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Paxta tolasi	11 555,5	-	11 555,5	10,8	-	19,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	25 730,5	18 799,2	6 931,3	24,0	40,6	11,4
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	19 765,1	12 270,8	7 494,3	18,4	26,5	12,3
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	10 917,9	2 395,1	8 522,8	10,2	5,1	14,0
Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar	235,3	235,3	-	0,2	0,5	-
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	44,1	42,4	1,7	-	0,1	-
Xizmatlar	2 237,4	1 460,3	777,1	2,1	3,2	1,3
Boshqalar	36 717,1	11 142,8	25 574,3	34,3	24,0	42,0

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi xizmatlar hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar hamda turli xil tayyor buyumlarga to`g`ri kelmoqda.

MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTINING
O`SISH
SUR`ATLARI
(2020-yil
yanvar-iyun)

Tarkibi	2019-yilning mos davriga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	57,1	81,8	46,4
shu jumladan:			
Paxta tolasi	24,8	-	25,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	60,2	99,7	29,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	66,3	64,0	70,4
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	60,4	30,2	84,0
Qora metallar rangli va undan tayyorlangan buyumlar	67 m.	168 m.	-
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	36,5	35,1	-
Xizmatlar	67,5	75,9	55,9
Boshqalar	77,9	134,9	65,8



2020-yil yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-iyuniga nisbatan, Qora va rangli metallardan tashqari barcha tovar va xizmatlarda kamayish kuzatildi.

**EKSPORT
TARKIBI
DINAMIKASI
(yanvar-iyun,
% da)**

Tarkibi	ulushi, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Paxta tolasi	10,8	-	19,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	24,0	40,6	11,4
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	18,4	26,5	12,3
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	10,2	5,1	14,0
Qora rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	0,2	0,5	-
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	-	0,1	-
Xizmatlar	2,1	3,2	1,3
Boshqalar	34,3	24,0	42,0


**MDH
VA BOSHQA
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-iyun,
ming AQSh
dollari,
ulushi, % da)**

So`nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018-yil yanvar-iyunida **27,8 %** dan 2020-yil yanvar-iyunda **43,2 %** ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **56,8 %** ni tashkil etdi.



2020-yilning yanvar-iyun oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qozog`iston (eksport umumiy hajmining **17,1 %**), Rossiya Federatsiyasi (**15,3 %**), Turkiya (**12,5 %**), Eron (**12,0 %**), Afg`oniston (**11,8 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**7,9 %**) va Indoneziya (**5,6 %**) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **82,2** foizni tashkil etmoqda.

**VILOYAT
EKSPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI,
foizda
(2020-yil
yanvar-iyun)**




Tovarlar va xizmatlar eksporti bo`yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan etakchi bo'lgan Rossiya Federatsiyasining bir pog'onaga tushishi hisobiga, Qozog'iston eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019-yining mos davriga nisbatan **42** davlatdan **45** davlatga ko'paydi.

QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O`SISH SUR`ATLARI (yanvar-iyun)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun
Qozog'iston	18 691,4	18 289,1	121,9	97,8	4	1
Rossiya Federatsiyasi	18 514,6	16 376,6	113,2	88,5	5	2
Turkiya	36 065,7	13 428,4	2,1 m.	37,2	2	3
Eron	35 391,2	12 838,1	3,1 m.	36,3	3	4
Afg'oniston	10 628,5	12 638,4	171,3	118,9	7	5
Xitoy Xalq Respublikasi	36 210,3	8 440,0	73,0	23,3	1	6
Indoneziya	7 110,0	5 997,3	53,1	84,4	8	7
Qirg'iz Respublikasi	3 396,1	5 313,6	3,5 m.	156,5	9	8
Tojikiston	11 606,5	4 070,9	143,9	35,1	6	9
Pokiston	1 156,3	3 525,3	62,8	3,0 m.	11	10
Ukraina	3 162,8	1 335,2	10,5 m.	42,2	10	11
Singapur	368,7	974,9	21,6	2,6 m.	16	12
Moldova	429,6	703,5	71,7	163,8	15	13
Chexiya	797,4	433,9	4,3 m.	54,4	12	14
Malayziya	429,7	433,0	-	100,8	14	15
Filippin	-	418,6	-	-	20	16
Yaponiya	2,3	340,7	105,6 m.	145,3 m.	19	17
Hindiston	38,5	328,0	198,6	8,5 m.	18	18
Polsha	704,5	220,2	2,2 m.	31,2	13	19
Belarus	280,5	150,5	132,1	53,6	17	20

**XIZMATLAR
EKSPORTI
TARKIBI**
(yanvar-iyun,
ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi **2 237,4** ming. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **2,1** % ini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan **32,5** % ga kamayganligi kuzatildi. So`nggi uch yilda o`shish hisobiga xizmatlarning jami eksportdagi ulushi o`sdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (**51,3** %) va moliyaviy (**17,6** %) xizmatlari hissasiga to`g`ri kelgan. Shu bilan birga safarlar (**7,7** %), qurilish xizmatlari (**3,1** %), va boshqa xizmatlar umumiy hajmda **17,6** % ni tashkil etgan.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan **22,0** mln. dollarga yaqin qiymatli **38,7** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019-yilning mos davriga nisbatan **16,2** mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, **32,5** % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **10,3** mln. AQSh dollariga teng **23,5** ming tonna sabzavot, shuningdek, **11,6** mln. AQSh dollari qiymatidagi **15,1** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog`iston (**43,6** %), Rossiya Federatsiyasi (**25,4** %), Qirg`iz Respublikasi (**11,7** %), Afg`oniston (**9,9** %) va Pokiston (**6,7** %) davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2020 yil yanvar-iyun ming AQSh dollari)



Hukumat tomonidan qishloq xo`jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **2,1** % ni tashkil etdi.

**MEVA -
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARINING
EKSPORT
GEOGRAFIYASI
(yanvar-iyun)**


Davlatlar	2019-yil yanvar-iyun			2020-yil yanvar-iyun		
	ming tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da	ming tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da
Qozog'iston	9 465,6	5 790,2	15,1	18 932,1	9 583,1	43,6
Rossiya Federatsiyasi	9 664,5	3 611,6	9,4	12 985,7	5 576,3	25,4
Qirg'iz Respublikasi	131,2	2 406,7	6,3	1 354,0	2 575,9	11,7
Afg'oniston	285,2	219,0	0,6	3 500,2	2 164,0	9,9
Pokiston	24,0	14,6	-	1 168,5	1 476,9	6,7
Xitoy Xalq Respublikasi	51,1	55,8	0,1	178,0	205,9	0,9
BAA	31,4	89,8	0,2	49,6	147,3	0,7
Iroq	258,5	261,5	0,7	62,4	62,4	0,3
Hindiston	-	-	-	21,0	26,3	0,1
Latviya	51,7	29,9	0,1	52,9	24,5	0,1
Turkiya	2 078,5	21 586,6	56,5	22,0	24,2	0,1
Ukraina	1 081,4	3 061,6	8,0	96,9	23,6	0,1
Eron	138,0	138,0	0,4	23,0	23,0	0,1
Moldova	-	-	-	100,8	21,4	0,1
Polsha	497,4	466,0	1,2	59,3	13,4	0,1
Belarus	185,4	67,8	0,2	66,1	10,1	0,1
Ozarbayjon	21,8	28,2	0,1	-	-	-
Bolgariya	67,5	314,2	0,8	-	-	-
Boshqa davlatlar	66,1	9,1	0,2	-	-	-

*-qiymat ifodasidan

QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-iyun)

2020-yil yanvar-iyun oylarida import hajmi 150,3 mln. AQSH dollarini va 2019-yilning mos davriga nisbatan 69,0 % ni tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020-yil yanvar-iyunida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **67,6** mln. AQSh dollariga kamaydi.

**XSST BO`LIMI
BO`YICHA
IMPORT TARKIBI
(2020-yil
yanvar-iyun,
ulushi, % da)**



Xizmatlar importi esa **0,02** mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORT TARKIBI
(2020-yil
yanvar-iyun)**

Tarkibi	ming AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlar	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlar	Boshqa davlatlar
Jami import	150 311,0	25 384,0	124 927,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari	4 822,1	3 326,4	1 495,7	3,2	13,1	1,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	19 831,6	4 633,0	15 198,6	13,2	18,3	12,2
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	4 781,1	4 536,8	244,3	3,2	17,9	0,2
Qora va rangli metallar va ulardan yasalgan buyumlar	5 008,0	892,9	4 115,1	3,3	3,5	3,3
Mashina va asbob-uskunalar	105 318,0	6 445,4	98 872,6	70,1	25,4	79,1
Xizmatlar	544,5	444,1	100,4	0,4	1,7	0,1
Boshqalar	10 005,6	5 105,3	4 900,3	6,6	20,1	3,9

Importning eng katta ulushi, jumladan, mashina va asbob-uskunalar (**25,4 %**), energiya manbalari va neft mahsulotlari (**17,9 %**) hamda kimyo mahsulotlari va buyumlari (**18,3 %**) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (**79,1 %**) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (**12,2 %**), hissasiga to`g`ri keladi.

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTNING O`ZGARISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-iyun)

XSST tarkibi	2019-yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	69,0	54,8	72,8
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	47,2	45,3	52,4
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	66,4	44,5	78,0
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	110,5	115,6	60,8
Qora va Rangli metallar va ulardan yasalgan buyumlar	47,2	19,8	67,6
Mashina va asbob-uskunalar	76,5	66,1	77,3
Xizmatlar	25 m.	296 m.	5,0 m.
Boshqalar	39,7	49,2	33,0

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2019-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi **65,1** % kamaydi.

IMPORT TARKIBI DINAMIKASI (2020-yil yanvar-iyun, ulushi, % da)

Tarkibi	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun	2020 yil yanvar-iyun
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,2	13,1	1,2
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	13,2	18,3	12,2
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	3,2	17,9	0,2
Qora va Rangli metallar va ulardan yasalgan buyumlar	3,3	3,5	3,3
Mashina va asbob-uskunalar	70,1	25,4	79,1
Xizmatlar	0,4	1,7	0,1
Boshqalar	6,6	20,1	3,9

Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida **33,6 %** ulushi bilan Germaniya (**12,4 %**) ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.


**TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTIDAGI
YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
(yanvar-iyun)**

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O`shir sur`ati, % da		O`rni	
	2019-yil yanvar- iyun	2020-yil yanvar- iyun	2019-yil yanvar- iyun	2020-yil yanvar- iyun	2019-yil yanvar- iyun	2020-yil yanvar- iyun
Xitoy Xalq Respublikasi	98 614,8	50 506,5	3,4 m.	51,2	1	1
Germaniya	6 584,0	18 587,3	95,6	2,8 m.	7	2
Rossiya Federatsiyasi	14 618,2	12 653,8	94,2	86,6	3	3
Turkiya	7 227,3	11 360,0	55,3	157,2	6	4
Hindiston	2 096,5	9 938,4	55,5	4,7 m.	18	5
Yaponiya	5 411,2	8 175,0	71,6	151,1	9	6
AQSH	3 544,5	5 718,6	75,6	161,3	12	7
Belarus	2 404,8	5 179,0	4,5 m.	2,2 m.	15	8
Qozog`iston	17 498,9	4 580,0	2,4 m.	26,2	2	9
Fransiya	3 429,3	3 169,3	3,3 m.	92,4	13	10
Italiya	2 102,6	2 253,0	36,0	107,2	17	11
Janubiy Koreya	7 488,4	1 993,0	15,1	26,6	5	12
Litva	11 180,5	1 826,3	45,4 m.	16,3	4	13
Shveysariya	1 157,3	1 456,8	14,1 m.	125,9	23	14
Turkmaniston	5 942,6	1 329,3	5,6 m.	22,4	8	15
Qirg`iz Respublikasi	38,2	1 165,1	5,4	30,5 m.	40	16
Polsha	571,7	906,4	5,8 m.	158,5	25	17
Kanada	715,9	628,8	93,4	87,8	24	18
Niderlandiya	1 231,9	558,9	5,1 m.	45,4	22	19
Eron	1 291,5	554,5	3,0 m.	42,9	21	20

2019-yil bilan taqqoslaganda import bo`yicha eng yuqori oltilikga Germaniya, Hindiston va Yaponiya qo`shildi. 2020-yil yanvar-iyun

oylari yakuni bo'yicha Qashqadaryo viloyati tomonidan **45** davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

**TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR-
DAVLATLAR
DINAMIKASI
(yanvar-iyun)**



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Hindiston, Yaponiya va AQSH) jami importning **77,8 %** ini tashkil qiladi, bu **116,9** mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Germaniya, Rossiya, Turkiya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta`minlash bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:75-221-44-28**